

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urinbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Qurbonova Marg'uba</i> O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY OMMALASHTIRISH VOSITALARI	13-15
<i>Polvanov Azim Kuchkarovich</i> AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING MANBALARDA YORITILISHI	16-21
<i>Esnazarova Zulfiya Baltashovna</i> QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI (1873 – 1924)	22-27
<i>Axmedov Shaxzod Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991 – 2017-yillar)	28-36
<i>Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid</i> IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR XODIMLARINING ISHTIROKI	37-43
<i>Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li</i> XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI	44-47
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN (CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE)	48-52
<i>Esanova Nilufar</i> 1991-2024 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANOAT SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR (HINDISTON VA XITOIY MAMLAKATLARI MISOLIDA)	53-56
<i>Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li</i> O'ZBEK XONLIKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	57-64
<i>Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li</i> HUDUDIIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA	65-70
<i>Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li</i> XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT SANOATINING ROSSIYA IQTISODIIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI	71-74
<i>Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMIR YO'LINING QURILISHI VA UNING IJTIMOYIY-IQTISODIIY AHAMIYATI	75-80
<i>O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li</i> ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTON SANOATI	81-88

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov

MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASSTERLARI:

EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH 89-98

Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi

MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:

QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI? 99-104

Xakkulov Akbar Uralovich

MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI 105-111

Amonov Mehridin Oromiddinovich

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:

AVTOKRATIK RAHBARLAR 112-117

Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna

HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI

BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI 118-125

Yangiboyev Rustam Berdiyarovich

TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI 126-131

Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich

DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN

FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK

XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI 132-143

Eshqobilova Nigoraxon, Qurbonova Safiyabonu

DAVLAT BUDJETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING

NAZARIY ASOSLARI 144-150

Umronov Eldorbek Sodirovich

HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING

EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI 151-159

Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz

OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY

IN UZBEKISTAN 160-172

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Ahmedova Dilrabo

YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY

JARAYONLARNING TA'SIRI 173-177

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna

NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING

FALSAFIY TAHLILI 178-184

Kurbonaliyev Ural Xatamovich

ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH

DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI 185-189

Soipova Mavjuda Karimjanovna

FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI 190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i> YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOIIY AHAMIYATI	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i> IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOIIY FALSAFIY TALQINLAR	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i> КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY- FALSAFIY OMILLARI	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOIIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i> TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizaitovich</i> YOSHLARDA AXLOQIIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i> SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i> GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i> YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i> TARIXIIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANTIRISH HAQIDAGI QARASHLAR	265-271
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i> СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК	272-280

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i> PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanovna</i> A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i> ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i> ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i> MARGARET DRABBLING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i> A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i> СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i> ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION	332-337
<i>Nazimova Himmatoy</i> "DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI TAHLILI	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i> SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI	343-348
<i>Azizova Feruza Rejaveliyevna</i> TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i> XITOIY TILIDAGI MUHOJIRAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i> SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i> DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i> BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i> TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	373-376

Mamadiyeva Hilola

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI 377-384

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Abdullayeva Nodira Odil qizi

OILAVIY (MAISHIY) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI 385-393

Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN

FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR 394-399

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING

PREDMETI VA USULLARI 400-407

Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ

ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ 408-413

Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li

BURHONUDDIN MARG'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO

MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR 414-420

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi

SUN'IY INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):

MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI 421-432

Burxonov Shahzod Burxon o'g'li

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI

TARTIBGA SOLISH 433-438

Avezov Umidjon Toshpulatovich

O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH

BOSQICHLARI TAHLILI 439-446

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Максудов Улугбек Курбанович

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ

СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ

В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 447-453

Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza

SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 454-458

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

O'QUV FAOLIYATI TAMOIYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmera

TALABALARDA TAHLILIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK

ASOSLARI 464-468

Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS

FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARGA AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i> TEKNOLOGIYA DARSLARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI	491-495
<i>Абдуллаева Дилдора Улугбековна</i> АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРАВОВЫХ ДИСЦИПЛИН В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i> STEAM TA'LIM TEKNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i> SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	509-514
<i>Avazova Munisa</i> TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH: GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazlitdinov Muhammadali</i> SUN'IY INTELLEKT VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV METODLARI	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i> KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS)GA TAYYORLASH USULLARI	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT TARBIYASINING O'RNI	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i> KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i> BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI	563-568

Received: 15 April 2025

Accepted: 1 May 2025

Published: 10 May 2025

Article / Original Paper

INDUSTRY OF UZBEKISTAN IN THE FIRST YEARS OF THE GREAT PATRIOTIC WAR

Urmonov Khusniddin

Museum of Memory of Victims of Repressions
in the structure of Gulistan State University, employee

Abstract. The article highlights the transfer of Uzbekistan's industry to war footing, the work of evacuated industrial enterprises in the first years of World War II. It is emphasized that these processes influenced the development of heavy and light industry in the republic.

Keywords: World War II, Great Patriotic War, feat, evacuation, industrial enterprises, plant, transfer to war footing, military products.

ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTON SANOATI

O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li

Guliston davlat universiteti tuzilmasidagi
Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi xodim
E-mail: urmonov94@list.ru

Annotatsiya. Maqolada Ikkinchi jahon urushining dastlabki yillarida O'zbekiston sanoatini harbiy izga o'tkazilishi, evakuatsiya qilingan sanoat korxonalarini ishga tushirilishi yoritilgan. Mazkur jarayonlar respublikadagi og'ir va yengil sanoatni rivoj topishiga ta'sir qilgani qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, Ulug' Vatan urushi, jasorat, evakuatsiya, sanoat korxonalari, zavod, harbiy izga tushirish, harbiy mahsulot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N14>

Kirish. 2025-yil 19-fevraldagi "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G'alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va munosib nishonlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorida qayd etilganidek, "mamlakatimizda 9-may — Xotira va qadrlash kunini keng nishonlash, Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaga hissa qo'shgan urush va mehnat faxriylariga hamda Vatan ravnaqi, taraqqiyoti va uning himoyasi uchun kurashgan buyuk ajdodlarimizga alohida e'tibor va chuqur ehtirom ko'rsatish, shuningdek mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari xotirasini ulug'lash yurtimizda oliyjanob qadriyatga aylangan... Biz tinchlik va mustaqillik uchun o'z jonini ayamagan ota-bobolarimiz va mard o'g'lonlarimizning ulkan jasorati, matonati hamda fidoyiliklarini yuragimizda abadiy saqlaymiz" [1].

Insoniyat tarixida hech bir urushda hech bir davlat 1 418 kun davom etgan janglarda 27 million 343 ming jangchi, zobit va fuqarosidan judo bo'lgan emas. Bu urushga O'zbekistondan 1 433 230 kishi safarbar qilingan. Respublika aholisining umumiy soni

6,5 million bo'lgan, shulardan bolalar va keksalarni chiqarib tashlasak, bu raqam ikki baravar qisqaradi. Demak, 3,25 million yaroqlilardan yarmi ayollar — onalar ekanligini inobatga olsak, 1,6-1,7 million harbiy xizmat yoshidagi erkaklar qoladi. Ya'ni, O'zbekiston aholisining deyarli 22 foizi, harbiy xizmatga yaroqlilarining deyarli 90 foizi urushga yoki ishchi batalyonlariga ketgan. Shulardan 263 005 kishi halok bo'lgan, 32 670 kishi bedarak yo'qolgan, 60 452 kishi nogiron bo'lib qaytgan [21, b.146; 20, b.33].

Bugungi kunda respublikamiz aholisining tarixiy qahramonligi, fidokorona mehnatini ulug'lash, yosh avlodni ona Vatanga sadoqatli, bugungi tinch, osoyishta hayotni asrab-avaylashga qodir insonlar etib tarbiyalash maqsadida urush yillarida ko'rsatilgan qahramonlik va jasoratni yoritib beradigan kitoblar, maqolalar yozilmoqda, anjumanlar o'tkazilmoqda. 2025-yilda G'alabani 80-yili hamda 9-may umumxalq bayrami – Xotira va qadrlash kuni sifatida keng nishonlanmoqda. Urush davrida o'zbekistonliklar frontda va front ortida ulkan jasoratni namoyon etdilar, og'ir sharoitlarda O'zbekiston rahbariyati qisqa vaqt ichida evakuatsiya qilingan korxonalarini joylashtirish va front ehtiyojlari uchun mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'lik murakkab vazifalarni yechimini topishga kirishgan edilar. Vatanimizning sovet davri, shu jumladan urush yillaridagi tarixini xolisona, manbalar va arxiv hujjatlari asosida o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Sovet va mustaqillik davrlarida chop etilgan bir qator kitob, ilmiy ishlar va maqolalarda O'zbekistonga evakuatsiya qilingan korxonalar haqida ma'lumot berilgan [5; 7; 8; 10; 11; 16; 18]. "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jurnalining 1985-yil 5-sonida [23] sovet xalqining Ulug' Vatan urushida qozonilgan G'alabasining 40-yilligiga bag'ishlangan maqolalar chop etilgan. Jumladan, O'zbekistonning urush davridagi sanoati masalasi A.Yu.Ibragimova, M.Sh.Qosimova, S.K.Ziyadullayev, L.P.Dyadyura va boshqalarning maqolalarida o'z aksini topgan. X.B.Bobojonov o'z maqolasida O'rta Osiyoga sanoat korxonalarini evakuatsiya qilish jarayonini tahlil qilgan [4]. E.X.Xodjiyevning maqolasida Farhod GESi qurilishi qisqacha yoritilgan [19]. A.Yu.Atajanov maqolasida o'zbek xalqining front ortidagi evakuatsiya jarayonida ko'rsatgan matonati, sabri hamda g'amxo'rlikni yoritib berilgan [3].

Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan "Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston" nomli monografiyada O'zbekistonliklarning frontdagi va front ortidagi jasoratlari yoritilgan. Jumladan, respublika sanoatining harbiy maqsadlar asosida qayta qurilishi, sanoat obyektlarini okkupatsiya hududlaridan ko'chirilishi va faoliyatini tashkil etilishi arxiv hujjatlari asosida bayon qilingan [12, b.177-274].

Tadqiqotning nazariy va metodologik asosini o'rganilayotgan muammoga oid ilmiy adabiyotlar va arxiv hujjatlari tashkil etadi. Ushbu maqolani yozishda tarixiy-tahliliy usul qo'llanilib, manbalardagi ma'lumotlar tahlil qilindi. Dokumental tahlil usuli – arxiv hujjatlari tahlil qilinib, maqolaning ilmiy asosli bo'lishi ta'minlandi. Ushbu metodologik yondashuvlar maqoladagi nazariy xulosalarning ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

Muhokama va natijalar. 2025-yil 9-may kuni MDH davlatlari sovet xalqining Ikkinchi jahon urushida erishilgan Buyuk G'alabasining 80 yilligini nishonlamoqda. Tarixdan ma'lumki, fashistlar Germaniyasining SSSRga xiyonatkorona hujumining dastlabki kunlaridan boshlab Vatan himoyasiga butun ko'pmillatli sovet xalqi otlangan edi. Millionlab sovet odamlari harakatdagi armiya, xalq lashkari, partizan otryadlari, yashirin podpolye, Yevropa Qarshiligi saflarida kurashdilar, sanoat korxonalarai va transportda, kolxoz va sovxoz dalalarida

qahramonona ishladilar, Sovet Qurolli kuchlarini dushmanni tor-mor etish uchun zarur bo'lgan barcha narsalar bilan ta'minladilar. SSSR yagona jangovar lagerga aylanib, qisqa muddatlarda uning hayoti harbiy izga o'tkazilgan edi. 1941-yil avgust o'rtalarida VKP(b) MQ va SSSR XKS 1941-yil to'rtinchi choragi va 1942-yilga mo'ljallangan Povoljye, Ural, G'arbiy Sibir, Qozog'iston va O'rta Osiyo rayonlari bo'yicha harbiy xo'jalik rejasini qabul qilib, unda qisqa muddatlarda bu hududlarda sanoat qurilishini kengaytirib, harbiy mahsulotlarni va boshqalarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni rejalashtirgan edi [9]. 1941-yilning o'zidayoq O'rta Osiyo va Qozog'istonga 300 dan ortiq yirik zavod va fabrikalar ko'chirilgan edi. Bulardan 140 tasi Qozog'istonga, 104 tasi O'zbekistonga, qolganlari O'rta Osiyodagi boshqa respublikalarga joylashtirilgan edi [15, b.109]. Umuman olganda, urush davrida respublikamizga ko'chirib keltirilgan 170dan ortiq zavod va fabrika orasida Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi, "Krasniy put" zavodi, Leningrad to'qimachilik mashinalari zavodi, Rostselmash, "Qizil Oqsoy", Sumsk kompressor va Dnepropetrovsk karborund zavodlari, Moskvadagi "Elektrokabel" va "Pod'yomnik" zavodlari, Temir yo'llar xalq komissarligining mashinasozlik zavodi, Kiyevdagi "Transsignal" zavodi, Stalingrad kimyo kombinati va boshqalar bor edi [22].

Urush yillarida O'zbekiston ham Sovet armiyasining mustahkam frontorti bazasiga aylantirildi. Sanoatni front buyurtmalarini bajarishga o'tkazishga alohida e'tibor qaratildi. O'sha kunlarda "Pravda" gazetasida: "Bizda endilikda "tinch" korxonalar bo'lmaydi, har bir zavod, har bir fabrika harbiy ehtiyojlarni qondirish uchun ishlashi kerak", — deb yozilgan edi [17]. O'zbekistondagi yuzlab korxonalar frontga kerak bo'lgan qurol-yarog'lar va boshqa mahsulotlarni chiqara boshladilar. Mamlakatning g'arbiy rayonlaridan evakuatsiya qilingan sanoat korxonalari, tashkilotlar, muassasalar va ularning kollektivlarini qabul qilish, joylashtirish va tiklash bo'yicha qisqa muddatlarda ulkan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, o'zbek mutaxassislari va evakuatsiya qilingan mutaxassislar hamkorligida "Rostselmash" (keyinchalik "Tekstilnash") zavodining ayrim sexlari 3 haftada tiklanib, 25 kundan keyin frontga mahsulot bera boshladi. Qisqa vaqt ichida bu zavod uchun 11 500 kv. m maydonda sexlar qurildi va 11 000 kv.m. maydondagi ilgarigi sexlar qo'shimcha moslashtirildi. Bu zavodning uskunalari respublikaga 420ta vagonda yetkazilib, tezda o'rnatildi va 2 yarim oydan keyin zavod to'liq ishlay boshladi [6, b.32]. "Rostselmash" zavodi "Katyusha" va minomyot snaryadlari ishlab chiqara boshladi. Kolchuginskdan keltirilgan "Elektrokabel" zavodi 5 oy ichida qurilib, harbiy aloqa mahsulotlari yetkazib bera boshladi.

"Qizil Oqsoy" ("Krasniy Aksay", keyinchalik "O'zbekselmash") zavodi Toshkentga yetib kelganidan keyin 29 kun o'tgach mahsulot chiqara boshladi. Podmoskovyedan evakuatsiya qilingan V.P.Chkalov nomidagi yirik aviatsiya zavodi 1941-yil oktyabr oyida Toshkentga evakuatsiya qilindi. Moskvadan O'zbekistonga bu zavodning uskunalari deyarli 1000 ta vagonda yetkazildi, 5 mingga yaqin ishchi-mutaxassislar ham evakuatsiya qilindi. 1942-yil 7-yanvaridayoq dastlabki mahsulotni berdi. Ishlab chiqarishni tashkil qilish bo'yicha ishlarga zavodning bosh muhandisi B.P.Lisunov rahbarlik qilgandi. Birinchi samolyotni osmonga ko'targan uchuvchi N.Gavrilovning aytganidek, "10 kundan keyin esa jangovar samolyotlarning dastlabki partiyasi chiqdi"[11, s.4]. Evakuatsiya qilingan boshqa korxonalar ham qisqa muddatlarda tiklanib, ishga tushgan edi. Kadrlar, sanoat xomashyosi, yoqilg'i, stanoklar, uskunalar yetishmasligiga qaramay, 1941-yil dekabriga kelib Toshkentdagi 63 ta, respublika hududidagi 230 ta sanoat korxonalari mudofaa mahsulotlarini ishlab chiqara boshladi [29].

O'zbekistonda evakuatsiya qilingan va mahalliy korxonalarni ishchi kuchi bilan ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib qolgan edi. Bu borada urush davrida harbiy sanoatni doimiy kadrlar bilan ta'minlash, ish vaqtidan tashqari ishlarni kiritish, ta'tillardan voz kechish, ishlab chiqarish va qurilishda mehnatga loyiq bo'lgan band bo'lmagan aholini jalb qilish kabi choralar qo'llanildi. Umumharbiy safarbarlik natijasida frontga ko'plab malakali kadr erkaklarning ketganligi va aholining talaygina qismini ayollar, keksalar va bolalar tashkil etardi. Sanoatda va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida xotin-qizlar eng muhim ishchi kuchi bo'lishdi. 1942-yil oxiriga kelib O'zbekistonda sanoatda band bo'lgan ishchilar va xizmatchilarning 54,9% ularning ulushiga to'g'ri kelgan edi [11, s.4]. Urushning birinchi kunlaridanoq ayollar o'zining matonat va vatanparvarlik ruhini ko'rsatdi va 1941-yilning oktyabriga kelib, «Tashselmash» zavodining o'zida 800, Toshkent tekstil kombinatida esa 825 ayol tokar, slesar va boshqa kasblar egalari bo'lib ishlar edi [3, b.772-773].

Evakuatsiya qilingan zavod va fabrikalarni tiklashda talabalar, o'quvchilar, uy bekalari, fan va madaniyat xodimlari, xizmatchilar va kolxozchilar qo'liga belkurak, ketmon, lom olib, charchash nimaligini bilmay mehnat qildilar. Shuningdek, ko'plab mehnat faxriylari, nafaqaxo'rlar va nogironlar ham ishga qaytishdi. Sanoatni ishchi kuchi bilan ta'minlashda ayniqsa yoshlar katta rol o'ynadi. Birgina aviazavodga 1760ta yigitlar va 760 o'zbek qizlari ishga kelgan bo'lib, tajribali kadrlar tomonidan qisqa muddatlarda o'rgatildi va tez orada normadan ortiqcha mahsulot chiqara boshladilar [18, b.118]. Evakuatsiya qilingan korxonalar bilan birga kelgan tajribali ishchilar va muhandis-texnik kadrlar yordamida 100 mingdan ortiq ishchilar tayyorlandi. 25 mingdan ortiq yosh ishchilar esa O'zbekiston mehnat rezervlari tizimidan sanoat korxonalariga yuborildi [11, b.5].

Sanoat ishlab chiqarishi va mehnat unumdorligini oshirishda ommaviy sotsialistik musobaqa qudratli omil bo'lib xizmat qildi. Ishchilar ish normasini 200, 300, 400, 500 foizga bajara boshladilar. Jumladan, Samarqanddagi «Kolxoznik» nomli zavodda tokar Zavozin kunlik topshiriqlarni 400-500%ga bajardi. Bu zavodda 60dan ortiq kishi normani 200%ga bajarib kelgan edi [26]. 1941-yil dekabriga kelib ishni 2ta normagacha yetkazgan ishchilar soni respublika bo'yicha 2 martaga, 200%ga bajarganlar esa 5 martaga ko'paygan edi [27]. Keyinchalik ayrim ishchilar normani 5 barobar va hatto 10 barobar bajargan. Ishchilar o'rtasida «200 chilar» harakatining avj olishiga yuksak vatanparvarlik ruhi asos bo'lib xizmat qildi. Chunonchi, harakatning mohiyati «Nafaqat o'zim balki, frontga ketgan inson uchun ham rejani bajarish»ga intilishdan iborat edi. Moskvadagi komsomol yoshlar tashabbusi bilan komsomol yoshlarning front brigadalari shakllantirildi. Farhod GESi qurilishida mingchilar harakatini E.To'raboyev va A.Egamberdiyev boshqardilar.

Urush davrida O'zbekiston mamlakatdagi yirik arsenallardan biriga aylangani tufayli, sanoat korxonalarini elektr energiyasi bilan ta'minlash muammosi keskinlashdi. Agar 1940-41-yillar qish mavsumida Toshkent sanoat majmuidagi mavjud elektr stansiyalari quvvati va elektr energiyasiga ehtiyoj o'rtasidagi uzilish 4 mgvt tashkil qilgan bo'lsa, 1942-43 qish mavsumiga kelib 50 mgvt-gacha yetdi [13, b.90]. Bunday sharoitlarda yangi gidroelektr stansiyalarini qurish muhim harbiy-xo'jalik va siyosiy tadbirga aylandi. 1942-yil 18-noyabrda Davlat Mudofaa Qo'mitasi O'zbekistonda bir qator GESlar, jumladan Farhod GESini ham qurish to'g'risida qaror qabul qildi. 1942-yil 22-dekabrda Farhodstroy boshqarmasi tuzilib, unga A.A.Sarkisov boshliq, I.Ya.Kaminskiy esa bosh muhandis etib tayinlandilar. Farhod GESining qurilishi umumxalq qurilishiga aylandi: respublikadagi barcha viloyatlardan qurilish

materiallari, ketmonlar, yog'och va taxtalar va boshqa kerakli narsalar jo'natildi, quruvchilar va boshqa ishchilar yetib keldilar. Hatto minglab kolxozchi ayollar ham ularni Farhod GESi qurilishiga yuborishni so'rab ariza yozgan edilar [19, b.40-41]. 1943-yil 10-fevralga kelib qurilishda 60 mingdan ortiq kishi ishga kirishdi. 1943-yil 16-fevralga kelib Xovos tumanidagi Engels nomli kolxozi va Mirzacho'l tumanidagi Sverdlov nomli kolxoz yer ishlarini ortig'i bilan bajarishdi. Bir oy o'tgach, qurilishda 70 mingta kolxozchi, muhandislar, texniklar, vrachlar, san'atkorlar va boshqalar ishlagan. Yer ishlarini bajarayotgan samarqandlik kolxozchilar har kuni 10ta normani bajarib keldilar [19, b.41]. Farhod GESi qurilishida nafaqat o'zbekistonlik mehnatkashlar, balki barcha ittifoqdosh respublikalar ham qatnashdilar.

1942-yil o'rtalariga kelib O'zbekiston xalq xo'jaligi harbiy izga tushirildi, yalpi mahsulot ishlab chiqarishi 2 marta ko'paydi, uning xalq xo'jaligidagi ulushi 75% gacha o'sdi [14]. Ishchilar va texnik ziyolilar kuchi bilan O'zbekistonda sanoatning yangi tarmoqlari yaratildi, 280 ta yangi korxonalar – fabrikalar, zavodlar, elektr stansiyalari, konlar, shaxtalar va boshqalar ishga tushirildi. Bular orasida Tovoqsoy GESi, Oqtepa GESi, Qibray GESi, Bekobod metallurgiya zavodi, Chirchiq elektr kimyo kombinatining ikkinchi navbati, Angren ko'mir korxonalari va boshqa muhim obyektlar bo'lgan. Og'ir sanoatning o'sishi va ilgari ishlagan mashina qurilishi zavodlarining evakuatsiya qilingan zavodlarning qurilmalari negizida kengaytirilishi natijasida respublikada samolyotlar, aviabombalar, minomyotlar, minalar, granatalar va boshqa front mahsulotlari ishlab chiqarishi keskin oshirildi. O'zbekiston ittifoqning asosiy jangovar aslahaxonalaridan biri sifatida Mudofaa Fondiga 649,9 mln so'm pul, 22 kg oltin va kumush o'tkazdi [24]. Ochlik, charchoqqa qaramay, sanoat ishchilari frontni qurol-yarog', jangovar texnika va moddiy resurslar bilan ta'minlash uchun barcha imkoniyatlaridan foydalandilar.

Urush davrida frontga 2 100 samolyot, 17 342 aviamotorlar, 2 318 aviabomba, 17 100 dona minomyot, 4 500 dona minaga qarshi qurol, 22 mln dona mina, 560 mingta snaryad, 1 mln dona granata, 3 mln radiolampa, 300 mingta parashyut, 5 ta bronepoyezd, 18 ta harbiy-sanitar va kir yuvish poyezdlari, 2 200 ta harakatchan oshxona va boshqa harbiy texnikalar yetkazib berildi. 1941-yildan 1945-yilgacha O'zbekistondagi yengil sanoat korxonalari 7 518 800 dona gimnastyorka, 2 636 700 paxtali ust-bosh, 2 815 500 etik tayyorlashdi [25]. Og'ir mehnat yuki asosan ayollar, qariyalar va o'smirlar yelkasiga tushdi. Bundan tashqari, o'zbekistonliklar tank kolonnalari va jangovar samolyotlarni ishlab chiqarishni moliyalashtirishga o'z hissalarini qo'shdilar. 1942-yilda O'zbekiston kolxozchilari "O'zbekiston kolxozchisi" (Kolxoznik Uzbekistana) tank kolonnasi uchun 260 mln so'm yig'ib topshirishdi [8]. Shuningdek, aholi tomonidan issiq ust-bosh kiyimlarini to'plash ham yo'lga qo'yilgan edi. Frontga paxtalik kiyimlar, etiklar, sharflar, qo'lqoplar, paypoqlar, telpaklar, oziq-ovqat mahsulotlari to'planib, Yo'ldosh Oxunboboyev boshchiligida maxsus poyezdda frontga yetkazilgan edi [2, b.102].

Xulosa. Ko'pmillatli O'zbekiston xalqi butun taraqqiyparvar insoniyat qatori 1941-1945-yillarda Ikkinchi jahon urushida faol ishtirok etib, fashizm ustidan qozonilgan buyuk G'alabani ta'minlashga munosib hissa qo'shdi. el-yurtimizni urush yillarida ko'rsatgan mardlik va qahramonligi biz uchun ulkan jasorat maktabi, g'urur-iftixor manbai bo'lib, vaqt o'tgani sayin bu o'lmas qadriyatlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shuning uchun har yili 9-may mamlakatimizda Xotira va qadrlash kuni sifatida keng nishonlanadi. Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan ajdodlarimiz xotirasiga chuqur hurmat bajo keltirib, fashizmga qarshi

janglarda, mehnat frontida jonbozlik ko'rsatgan faxriylarimizga alohida e'tibor va ehtirom ko'rsatish yurtimizda olijanob an'anaga aylanib qoldi.

Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekistonga ko'chirilgan sanoat korxonalarining ko'pchiligi urushgacha harbiy mahsulotlar ishlab chiqarmagan, shuning uchun ularning ishini harbiy mahsulotlar ishlab chiqarish uchun qayta qurish zarur edi. Bu jarayon texnologik jarayonlarni o'zgartirish, ishlab chiqarishga qo'shimcha asbob-uskunalarni jalb qilishni, evakuatsiya qilingan texnik-muhandislar yordamida yangi kadrlarni tayyorlashni va zavodlarni qisqa muddatlarda ishga tushirishni talab qilardi. Urush yillarida O'zbekistonda sanoat korxonalarining ko'chirilishi va tezlikda ishga tushirilishi ittifoq harbiy salohiyatini oshirishga salmoqli hissa qo'shdi. Amerikalik jurnalist L.Sultsberger 1942-yil 20-iyuldagi "Life" jurnalidagi maqolasida evakuatsiya jarayonini tarixning buyuk voqealaridan biri ekanligi haqida yozdi [14, b.33; 12, b.264].

Okkupatsiya hududlaridan evakuatsiya qilingan dastgoh va texnika sobiq Ittifoq sharqiy hududlarida ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishda katta ahamiyat kasb etdi. Evakuatsiya qilingan korxonalarni yangi joyda tiklash va ishga tushirish iqtisodiyot transformatsiyasining ahamiyatli tadbirlaridan biri bo'ldi. O'zbekiston ixtiyoridagi asosiy iqtisodiy resurslar, qurilish salohiyati, elektr energiyasi quvvatlari, mehnat va moddiy imkoniyatlar ko'chirilgan korxonalarni tiklashga qaratildi.

Shunday qilib, evakuatsiya qilingan sanoat korxonalarining joylashtirilishi va tiklanishi natijasida O'zbekiston urushning birinchi yilidan boshlab frontga samolyotlar, aviabombalar, tank detallari, parashyutlar va boshqa qurol-yarog' va o'q-dorilarni yetkaza boshladi. Bundan tashqari, sanoatni evakuatsiya qilish va tiklash respublika sanoat ishlab chiqarishining o'sishiga, urushdan oldingi yillarda bu yerda bo'lmagan sanoat tarmoqlarining yaratilishiga va O'zbekistonning industrial rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazdi. Urush yillarida qurilish materiallari sanoati, to'qimachilik va poyabzal sanoati, oziq-ovqat sanoati, mahalliy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Faqat 1943-yilda 12 ta yog' zavodi, 3 ta paxta tozalash zavodi, 4 ta qand va 4 ta konserva zavodlari qurilib ishga tushirildi. Umuman olganda, urush yillarida O'zbekistonda 280 ta yangi sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Sanoatning yangi tarmoqlari – aviatsiya, stanoksozlik, og'ir mashinasozlik, qora va rangli metallurgiya hamda boshqa tarmoqlari vujudga keldi [28]. O'zbekistonliklar front orqasining nihoyatda qiyin sharoitlarida Sovet Ittifoqi xalqlari bilan birga dushman ustidan g'alabani fidokorona mehnatlari bilan ta'minlab bordilar va tarixda misli ko'rilmagan xalq jasoratini namoyon qildilar.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 19 февралдаги "Иккинчи жаҳон урушида қозонилган Ғалабанинг 80 йиллиги ҳамда Хотира ва қадрлаш кунига тайёргарлик кўриш ва муносиб нишонлаш тўғрисида"ги Қарори. / URL: <https://president.uz/uz/lists/view/7893>
2. Абдуллаев Д.Н. Гуманитарные ценности узбекского народа в годы Великой Отечественной войны. // Эшелоны идут на Восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны. Сборник материалов международной научной конференции, посвященной 75-летию Великой Победы. / Серия "Евразийский перекресток". Вып.12. – Оренбург – Ташкент, 2019. – 260 с. – С. 98-104.
3. Атажанов А.Ю. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистонга кўчирилган таълим соҳаси. // Academic research in educational sciences. 2022. №3 (10). – Б. 770-774.

4. Бабаджанов Х.Б. Процесс эвакуации промышленных предприятий из западных территорий бывшего Советского Союза в республики Средней Азии в годы второй мировой войны. // Приволжский научный вестник. 2014. №3 (31), часть 1. – С.39-43.
5. Вклад трудящихся Узбекистана в победу в Великой Отечественной войны. – Ташкент: Фан, 1975
6. Воскобойников Э.А., Яковлев В.М. Организаторская и идеологическая работа Коммунистической партии Узбекистана в годы Великой Отечественной войны. Июль 1941-1945 гг. – Т.: Узбекистан, 1966. - 182 с.
7. Голованов А. Саидов И. Вклад Узбекистана в победу над фашизмом. Часть II. – Самарканд: СамГУ, 2006.
8. Джуроев Т.Д. Коммунистическая партия Узбекистана в годы Великой Отечественной войны. – Ташкент, 1964. – 274 с. – С. 233-234.
9. Директивы КПСС и Советского правительства по хозяйственным вопросам. Сборник документов. Т.2. – М., 1957. – С. 707-712.
10. Ефимов В. Патриотический подвиг трудящихся Узбекистана в годы Великой Отечественной войны. –Т.: Фан, 1972.
11. Ибрагимова А.Ю. Рабочий класс и колхозное крестьянство Узбекистана – фронту. // Общественные науки в Узбекистане. 1985. №5. – С. 3-7.
12. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон. Монография. – Т.: Zamin Nashr, 2024. – 362 б. <https://shon-sharaf.uz/uploads/2024/08/2-2.pdf>
13. История Узбекской ССР. Т.4. – Т., 1968.
14. Куманев Г. Говорят сталинские наркомы. – Смоленск: Русич, 2005.
15. Курбанова Ш. Деятельность республиканских организаций Узбекской ССР по приему и размещению эвакуированных промышленных предприятий. // Эшелоны идут на Восток... – С. 108-112.
16. Нуруллин Р. Узбекистан – арсенал фронта в годы войны// Фашизм устидан қозонилган ғалабада Ўзбекистоннинг тарихий ҳиссаси (Илмий-назарий конференция материаллари). – 1996. – Б. 193.
17. Правда. 1941 г., 4 июля.
18. Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны. Т.1. – Т.:Фан, 1981. – 407 с/
19. Ходжиев Э.Х. Трудовой подвиг строителей ФархадГЭС. // Общественные науки в Узбекистане. 1985. №5. – С. 39-42.
20. Хоназаров Қ. Мустақиллик ва миллий муносабатларнинг ривожланиши. – Т.: ЎАЖБНТ маркази, 2001. – 33 б.
21. Erdonova Yu. A., Shokarimova K.A. Ikkinchi jahon urushi O'zbekiston va O'zbekiston xalqi ko'rsatgan jasorati. // Academic research in educational sciences. 2024. №5 (CSPU Conference 1 Part 1). – Б. 145-148.
22. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент, 2000. – Б. 440.
23. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1985. №5. - 63 б.
24. ЎЗР МДА., Фонд М – 58. Рўйхат 18. Йиғ. Жилд. 117. - В. 72.
25. ЎЗР МДА., Фонд И – 58. Рўйхат 25. Йиғ. Жилд. 12. - В. 34, 35, 307.
26. ЎЗР МДА. Фонд Р-400, рўйхат 1, йиғма жилд 1141, в.503.
27. ЎЗР МДА. Фонд Р-400, рўйхат 1, йиғма жилд 1141, варақ 206.
28. Yuldasheva Sh. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda 300 ta sanoat korxonasi faqat harbiy mahsulot ishlab chiqargan // Yangi O'zbekiston. 2020 yil 8 may soni./ URL: <https://yuz.uz/uz/news/ikkinchi-jahon-urushi-yillarida-ozbekistonda-300-ta-sanoat-korxonasi-faqat-harbiy-mahsulot-ishlab-chiqargan>
29. Ўзбекистон саноати ва қишлоқ хўжалиги фронт хизматида. / <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/ozbekiston-sanoati-xojaligi-front-xizmatida/>

30. Ўзбекистон тарихи. 10 синф. / <https://tarix-kitob.uz/ozbekiston-tarixi-10/ozbekiston-sanoati-va-qishloq-xojaligi-front-xizmatida/>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).